“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORRUPSIYA HOLATLARI HAQIDA XABAR BERISH MEXANIZMI, XABAR BERGAN XODIMLARNI RAG‘BATLANTIRISH, ULARNING TA’QIBGA OLINMASLIGI KAFOLATLARI REGLAMENTI

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
Toshkent

So‘zboshi

1 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN

2 “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning 2026.07.09 dagi 215-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

3 BIRINCHI BOR KIRITILGAN

Tasdiqlayman

“O‘zbekiston MET” AJ
boshqaruvi raisi

A.A. Nazirov

“O‘ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORRUPSIYA HOLATLARI HAQIDA XABAR BERISH MEXANIZMI, XABAR BERGAN XODIMLARNI RAG‘BATLANTIRISH, ULARNING TA’QIBGA OLINMASLIGI KAFOLATLARI REGLAMENTI

Amalga kiritish sanasi 2026.10.09.

1 Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu Reglament O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” 2017-yil 3-yanvardagi 419-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdqilash haqida” 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ichki hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan (Jamiyat va uning tasarrufidagi filiallarda faoliyat olib borayotgan rahbar hamda ishchi-xodimlar) xodimlar va fuqarolarni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

1.2 Asosiy tushunchalar:

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy yoki boshqa shaxslar manfaati uchun moddiy yoki nomoddiy manfaat olish maqsadida noqonuniy foydalanishi, shuningdek, bunday manfaatlarning noqonuniy tarzda taqdim etilishi.

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

manfaatlar toqnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

korrupsiyaga oid xatti-harakat (harakatsizlik) – sodir etishga urinish tegishli o‘rganish yoki tekshirish natijalariga ko‘ra tasdiqlangan, biroq xodimning o‘z xohishi bilan yakunlanmagan korrupsiya alomatlariga ega harakat (harakatsizlik).

1.3 Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlar – Jamiyat ishchi xodimlari.

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish – Jamiyat va uning filiallarida tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish.

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashish – korrupsiyaga oid jinoyatlami tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda bevosita ko‘maklashish.

korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar – Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 61, 193-1, 193-2-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar.

korrupsiyaga oid jinoyatlar – Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v” bandi, 192-9 va 192-10, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar.

korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar (keyingi o‘rinlarda - korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar) – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

1.4 Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirishning (keyingi o‘rinlarda – rag‘batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohadagi siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash;

- korrupsiyaga oid jinoyatlaming barvaqt profilaktikasini ta’minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

1.5 Rag‘batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta’minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

1.6 Ushbu Reglament talablari quyidagi xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida kelib tushgan xabarlarni ko‘rib chiqish va xizmat tekshiruvlarni o‘tkazishga vakolatlangan xodimlar;

- qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o‘z ixtiyori bilan arz qilgan va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan xodimlar.

1.7 Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida belgilanadi.

1.8 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqidagi xabarlarga asosan, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan o‘rganish, zaruratga ko‘ra xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, yakuniga ko‘ra to‘plangan hujjatlar tegishli munosabat bildirish uchun Jamiyat rahbariyatiga yuboriladi.

2 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish asoslari va turlari

2.1 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida Jamiyat rahbariyatiga yoki bevosita Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatiga xabar berilib, shunga asosan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik fosh etilgan taqdirda, shuningdek, xabar natijasida katta miqdorda mablag‘ tejalishi, katta miqdorda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarning oldi olinishi, Jamiyat hisob raqamiga pul mablag‘lari kelib tushishiga olib kelsa va Jamiyat uchun manfaatli bo‘lsa xabar beruvchi yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlar bir martalik pul mukofoti, sovg‘a yoki tashakkumoma bilan rag‘batlantiriladi.

2.2 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

a) korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 61, 193-1, 193-2-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar uchun – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 193-4-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar uchun – undirilgan jarimaning 10 (o‘n) foizi miqdorida;

b) korrupsiyaga oid jinoiy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun:

- ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) baravari miqdorida;

- uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 7 (yetti) baravari miqdorida;

- og‘ir jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o‘n) baravari miqdorida;

- o‘ta og‘ir jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (o‘n besh) baravari miqdorida.

Bunda, ayni bir huquqbuzarlik haqida berilgan xabarlar uchun bir martalik pul mukofoti xabar beruvchilar o‘rtasida solidar tartibda taqsimlanadi.

2.3 Esdalik sovg‘a bazaviy hisoblash miqdorining 2 (ikki) baravaridan oshmasligi lozim.

2.4 Quyidagi holatlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodim:

- ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarlik haqida xabar berganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining 3 (uch) baravari;

- har xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun ushbu jinoyatlaming ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib og‘irroq tasnifi bo‘yicha 1 (bir) marta;

- bir xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun bir marta rag‘batlantirilishi mumkin.

2.5 Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so‘ng rag‘batlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi:

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda;

- holat yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi dalolatnomasi tasdiqlanganidan so‘ng;

- Jamiyat hisob raqamiga mablag‘larning kelib tushganidan so‘ng.

2.6 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq harajatlar Jamiyat mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

3 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish

3.1 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish Jamiyat rahbariga Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati, Inson resursalri bilan ishlash va rivojlantirish boshqarmasi, Yuridik boshqarma, Iqtisodiyot va rejalashtirish boshqarmasi, Buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritish boshqarmalari boshliqlari kelishgan holda kiritilgan ma’lumotiga muvofiq amalga oshiriladi.

3.2 Jamiyatning Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati mas’ul xodimi tomonidan aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabar yuzasidan, huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish uchun kelib tushgan hujjatlarni o‘rganadi.

Huquqbuzarlik haqidagi xabar va korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqacha tarzda berilgan ko‘makning korrupsiyaga oid jinoyatlami aniqlash va fosh etishda yoki oldini olishdagi ahamiyati hamda erishilgan natijani inobatga olib, mazkur Reglamentga muvofiq rag‘batlantirishning turi va miqdorini aniqlaydi yoki rag‘batlantirishni rad etadi.

3.3 Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqib, turlari bo‘yicha shakllantirgan holda rag‘batlantirish bayonnomasi loyihasini Jamiyat rahbariga kiritadi.

3.4 Bayonnoma mazkur Reglamentning 4-bo‘limida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqiladi.

3.5 Huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarga oid ma’lumotlar oshkor etilmaydi va F.X. (fuqaro xabari) initsiali bilan ish ko‘riladi.

3.6 Bayonnoma va ilova qilingan hujjatlar hamda boshqa hujjatlar arxivga oid qonun-hujjatlari va ichki me’yoriy qoidalarga muvofiq saqlanadi.

4 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish va rag‘batlantirish tartibi

4.1 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish bayonnomasi Reglamentning 3.1 kichik bo‘limida belgilangan tartibda departament, boshqarma, bo‘lim va xizmat boshliqlari tomonidan ko‘rib chiqiladi va kelishiladi.

4.2 Xodimlarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar bo‘yicha yuritilgan ishlar yuzasidan mazkur Reglamentning 2.5 kichik bo‘limida ko‘rsatilgan qarorlardan biri qabul

qilinganidan so‘ng, Reglamentning 2.2 kichik bo‘limi tartibi bo‘yicha Bayonnoma ko‘rib chiqiladi.

4.3 Taqdimnomaga rag‘batlantirish uchun asos bo‘luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ro‘yxatdan o‘tgan ariza nusxasi yoki og‘zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma’lumotlar;

- sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi;

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarning shaxsiy hisobvarag‘i bo‘lgan bank rekvizitlari.

Bunda barcha hujjatlar Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatining mas’ul xodimining o‘zida saqlanadi va bu ma’lumotlar oshkor etilmasligi bo‘yicha majburiyat oladi.

4.4 Rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi bayonnoma va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag‘batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Yuridik boshqarma va Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasiga kelishuvga kiritiladi.

Bunda, xabar bergan xodimlarning shaxsiy ma’lumotlari sir saqlangan holda mazkur Reglamentning 3.5 kichik bandiga muvofiq initsiallar orqali ish olib boriladi.

4.5 Kelib tushgan Bayonnoma va ilova qilingan hujjatlar to‘liq emasligi va ularni rasmiylashtirishda ushbu Reglament talablariga rioya qilinmagani aniqlangan taqdirda, Boshqaruv raisiga kiritilishidan oldin, yetti 7 (yetti) ish kuni ichida hujjatlar ijrochiga qaytariladi.

Qaytarilish uchun asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlar ushbu Reglament talablari asosida qayta taqdim etilishi mumkin.

4.6 Rag‘batlantirish bo‘yicha qarorlar Bayonnomada aks ettiriladi va “XDFU” ustxati bilan rasmiylashtiriladi.

Bayonnomada kelib tushgan xabar mazmuni, aniqlangan holatlar, erishilgan natija hamda rag‘batlantirish turi va miqdori aniq ko‘rsatiladi.

4.7 Boshqarma va xizamt boshliqlarining Bayonnomada ko‘rsatilgan tegishli qarori asosida bir martalik pul mukofoti, esdalik sovg‘asi yoki tashakkurnoma bilan taqdirlash haqida Boshqaruv raisi buyrug‘i loyihasi (“XDFU” ustxati bilan) tayyorlanadi.

Buyruqda rag‘batlantirish sababi va Bayonnomadan iqtiboslar kiritilmaydi, lekin tegishli bayonnomaga havola qilinadi.

4.8 Buyruq tasdiqlanganidan so‘ng, Jamiyatning xizmat doirasida foydalanish uchun hujjatlar bilan ishlash tartibiga muvofiq ijrosi ta’minlanadi.

4.9 Jamiyat tomonidan bankda aynan korrupsiya haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish uchun maxsus hisob raqam ochiladi. Bunda hisob raqamga qo‘yiladigan mablag‘ miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 30 (o‘ttiz) baravari miqdorida qo‘yib boriladi.

4.10 Bir martalik pul mukofoti, maxsus hisob raqam ochilgan bankka Jamiyat Boshqaruvi raisining rag‘batlantirish buyrug‘i hamda to‘lovni amalga oshirish bo‘yicha rozilik xati bilan korrupsiyaga qarshi Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatining mas’ul xodimi bankka shaxsan borgan holda hujjatlarda ko‘rsatilgan F.I.SH., shaxsiy ma’lumotlarini sir saqlanishi sharti bilan, bank xodimiga taqdim etadi.

4.11 Korrupsiya haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlar o‘z yashab turgan manzilida mavjud bank filialiga (maxsus hisob raqam ochilgan bank filiali) borgan holda belgilangan mablag‘ni yechishi mumkin.

4.12 Esdalik sovg‘asi qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg‘a qilinadigan buyum xarid qilingandan so‘ng, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati mas’ul xodimi tomonidan 5 (besh) ish kuni ichida topshiriladi yoki uzoq hududda bo‘lsa manzili bo‘yicha pochta xizmati orqali yuboradi.

4.13 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish uchun berilgan pul mukofotlari va esdalik sovg‘alari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq soliqqa tortiladi.

5 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni ta’qibga olinmasligi kafolati va shaxsini sir tutish tartibi

5.1 Xodimlar, ularning oila a’zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida ular haqidagi ma’lumotlar sir tutiladi va faqatgina qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

5.2 Xodimlar, ularning oila a’zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6 Statistik ma’lumotlarni jamlash tartibi

6.1 Jamiyat hisobidan rag‘batlantirilgan xodimlar va ularni rag‘batlantirish ishlari hisobi Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati mas’ul xodimi tomonidan yuritiladi.

6.2 Xodimlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa vakolatli davlat organlariga statistik ma’lumot berilishi mumkin.

Bunda, xabar bergan xodimlaming shaxsiy ma’lumotlari sir tutiladi.

7 Xabar berish usuli va tartibi

7.1 Agar xodimlarga ushbu Reglament bo‘yicha maslahatlar zarur bo‘lsa, shuningdek, ushbu Reglamentni kimdir tomonidan buzilgan deb hisoblasalar,

Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmatining (71) 208-56-41, (71) 236-60-11, (71) 236-61-76 ichki raqamlari (32-011, 32-176) telefoni bo‘yicha qo‘ng‘iroq qilishlari yoki info@uzbekistonmet.uz elektron pochtasiga murojaat etishlari mumkin.

7.2 Jamiyatda sodir etilishi mumkin bo‘lgan yoki sodir etilayotgan qoidabuzarliklar to‘g‘risida vijdonan xabar bergan shaxslarga nisbatan ta’sir yoki ta’qib choralarini qo‘llash taqiqlanadi (o‘zi ishtirokchi bo‘lishi hollari bundan mustasno).

8 Yakuniy qoidalar

8.1 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

8.2 Ushbu Reglament talablari buzilganligida aybdor bo‘lgan xodimlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Axborot ma’lumotlari

Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati tomonidan **ishlab chiqilgan**

Xizmat boshlig‘i A.Z. Raxmonov

Kelishilgan

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari B.X. Murodov

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari S.S. Artikov

Boshqaruv raisining investitsiyalar
bo‘yicha o‘rinbosari F.M. Qurbonov

Boshqaruv raisining moliyaviy-iqtisodiy
masalalar bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Yuldashev

Iqtisodiyot va rejalashtirish
boshqarmasi boshlig‘i P.N. Xidirov

Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi
bosh buxgalteri S.N. Xolboyev

Xaridlar transformatsiya
ofisi boshlig‘i T.A. Rasulov

Sanoatda kooperatsiya aloqalarini
kengaytirish, mahalliylashtirish
va standartlashtirish bo‘limi boshlig‘i I.M. Begaliyev

Inson resurslari bilan ishlash
va rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i I.I. Xamidov

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha
boshqaruv raisi maslahatchisi O.A. To‘xtashev

Yuridik boshqarmasi boshlig‘i Sh.S. Axmedov

Norma nazoratchisi E.R. Kazakova